

1920–1924-YILLARDA XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASIDA YER-SUV ISLOHOTLARI VA ULARNING IQTISODIY TA’SIRI

Yuldosheva Bibirajab

BuxDU dotsenti

Latipov Mirshodbek Zayni o’g’li

BuxDU magistranti

mirshodlatipov6@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada 1920–1924-yillar davomida Xorazmda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda Xiva xonligi tugatilgandan so‘ng, Xorazm Xalq Sovet Respublikasida yer va suv resurslarini qayta taqsimlash, davlat yer fondining tashkil etilishi, yersiz va kam yerli dehqonlarga yer ajratish, vaqf yerlarining davlat nazoratiga o‘tishi kabi islohotlar jarayoni yoritib beriladi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligida kooperatsiyalarning shakllanishi, paxta yetishtirish hajmining oshishi, soliq siyosatida bolsheviklarning sinfiy yondashuvi va majburiy mehnat asosida sug‘orish inshootlarini ta‘mirlash tajribalari tahlil etilgan. Maqolada Xorazmning iqtisodiy va savdo ko‘rsatkichlari, tashqi bozorga mahsulot yetkazib berishdagi o‘shish, davlat byudjeti daromadlarining ko‘payishi hamda yer-suv siyosatining dehqonlar hayotiga ta’siri tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: XXSR, MIK majlisi, Konstitutsiya, Qurultoy, sovetlashtirish, milliy-hududiy chegaralanish, NEP, Turkkomissiya, Manifest, soliq.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются земельно-водные реформы, проведенные в Хорезме в 1920-1924 годах, и их влияние на социально-экономическую жизнь. В исследовании освещается процесс реформ в Хорезмской Народной Советской Республике после ликвидации Хивинского ханства, таких как перераспределение земельных и водных ресурсов, создание государственного земельного фонда, выделение земли безземельным и малоземельным дехканам, переход вакфных земель к государственному контролю.

Также проанализирован опыт формирования коопераций в сельском хозяйстве, увеличения объемов выращивания хлопка, классового подхода большевиков в налоговой политике и ремонта ирригационных сооружений на основе принудительного труда. В статье на основе исторических источников раскрыты экономические и торговые показатели Хорезма, рост поставок

продукции на внешний рынок, увеличение доходов государственного бюджета, а также влияние земельно-водной политики на жизнь дехкан.

Ключевые слова: *XXСР, заседание ЦК, Конституция, съезд, советизация, национально-территориальное размежевание, НЭП, Турккомиссия, Манифест, налог.*

ABSTRACT

This article analyzes the land and water reforms implemented in Khorezm during 1920-1924 and their impact on socio-economic life. The study highlights the process of reforms in the Khorezm People's Soviet Republic after the dissolution of the Khiva Khanate, such as the redistribution of land and water resources, the creation of the state land fund, the allocation of land to landless and small-land farmers, and the transfer of waqf lands to state control.

The formation of cooperatives in agriculture, the increase in cotton production, the Bolshevik class approach to tax policy, and the experience of repairing irrigation facilities based on forced labor were also analyzed. The article, based on historical sources, reveals the economic and trade indicators of Khorezm, the growth in the supply of products to the foreign market, the increase in state budget revenues, and the impact of land and water policy on the lives of farmers.

Keywords: *XXSR, Central Committee meeting, Constitution, Congress, Sovietization, national-territorial demarcation, NEP, Turkcomission, Manifesto, tax.*

KIRISH

XX asrning boshlarida Xiva xonligi iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga asoslangan agrar mamlakat edi. 1873 yil 12 avgustda Rossiya va Xiva xonligi o'rtasida tuzilgan Gandamiyon shartnomasiga muvofiq, xonlik hududining yarmidan ko'prog'i majburiy ravishda Rossiya saltanatining ixtiyoriga o'tkazildi va Xiva rasman Rossiya vassaliga aylandi. Keyinchalik Rossiya imperiyasida bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach (1917) Xiva xonligi butunlay tugatilib, yangi davlatga asos solindi. Mamlakat yerlari va chegaralari butunlay o'zgartirildi. Yuz yillar davomida to'plangan mulklar va bo'ysundirilgan yerlar xonlik tasarrufidan chiqarildi. Yangi tuzilgan XXSRda yangicha boshqaruv tizimi va yerga egalik qilishning ancha yaxshiroq shakli amalga oshirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tarixini o'rganishda ushbu davrda yashab o'tgan tarixchilar asarlari va xotiralariga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bevosita tarixiy hodisalarning guvohi bo'lgan shaxslar tomonidan qoldirilgan yozma manbalar o'ziga xos ilmiy qiymatga ega.

Bunday qimmatli manbalardan biri Polvonniyoz Hoji Yusupovning kundalik daftaridir. Jadidchilik harakatining faol vakili va "Yosh xivaliklar" inqilobiy qo'mitasi raisi bo'lgan Polvonniyoz Hoji XXSR shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarining bevosita guvohi sifatida Xorazm hamda Turkiston o'lkasidagi siyosiy voqealarni batafsil tarzda kundalik shaklida qayd etgan. Arab alifbosida yozilgan va 644 sahifadan iborat bo'lgan ushbu asar 1910–1925-yillar oralig'idagi muhim siyosiy jarayonlarni yoritadi.

Shuningdek, turkman tarixchisi Gaib Nepesovning 1962-yilda nashr etilgan *Из истории Хорезмской революции* ("Xorazm inqilobi tarixi") nomli asari ham XXSRdagi siyosiy jarayonlar va agrar islohotlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Nepesov Junaidxon bosmachiligi davrida asirga olinib, Qizil Armiya tomonidan ozod qilinganidan so'ng, o'z kuzatuvlariga asoslanib, zamonasining voqealarini tahlil qilgan.

Bundan tashqari, XXSR tarixiga doir maxsus tadqiqotlardan biri sifatida Yuldosheva B.M.ning *Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tarixshunosligi (1920–1924 yy.)* asari ham alohida e'tiborga loyiq. Mazkur ish XXSR tarixini o'rganishdagi tarixiy manbaalarning tahlili va tarixshunoslik yo'nalishidagi yondashuvlarni tizimli tarzda yoritadi.

Shu tariqa Polvonniyoz Hoji Yusupov, G.Nepesov va B.Yuldoshevaning asarlari XXSR tarixini ilmiy asosda o'rganish uchun muhim empirik va tarixshunoslik manbalari sifatida xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1920-yil 1-fevral kuni G.K. Skalov boshchiligidagi sovet qo'shinlari Xiva shahriga kirib keldi. Bu voqea o'z-o'zidan bir tarixiy burilish nuqtasiga aylandi. Shaharni egallagach, G.K. Skalov Xiva xonligi hukumatining amaldagi rahbari — Davlatmurod yasovulboshini hech qanday sud-tergovsiz otib o'ldirishga shaxsan buyruq berdi [1, 198]. Ushbu vahshiyona qatl Xorazmda sovet hukumatining bosqinchilik va qatag'on siyosatining ilk ko'rinishi sifatida tarix sahnasiga chiqdi.

Oradan bor-yo'g'i bir kun o'tib, 1920-yil 2-fevralda, sovet qo'mondonligi tomonidan ko'rsatilgan kuchli siyosiy bosim ostida, Xiva xoni Said Abdullaxon taxtdan voz kechganligini bildiruvchi manifestga imzo chekishga majbur bo'ldi. Shu bilan bir necha asrlik tarixga ega Xiva xonligi o'z faoliyatini yakunlab, siyosiy xaritadan o'chirildi. Xonlik tuzumi ag'darilib, mamlakatda yangi siyosiy tartibot o'rnatish uchun asos yaratildi.

Mahalliy vatanparvar kuchlar esa, yuzaga kelgan tarixiy imkoniyatni qadrlab, yangi davlat tizimini shakllantirish va zamonaviy jamiyat qurish masalalarini hal etishda bolsheviklarning ko'rsatmalariga tayanishga majbur bo'ldilar. Ular sovet

hokimiyatining yordam va ko'magiga samimiy ishonib, bolsheviklarni sharq xalqlarini asrlar davomida bosib kelgan zolim amir va xonlardan ozod qiluvchi kuch sifatida ko'ra boshladilar.

Xiva aholisi ham xonlikning qulashini va Junaidxonning mag'lubiyatini, umumiy hisobda, ijobiy baholadi. Bu voqea ko'pchilikda yangi davrga umid uyg'otdi. Mamlakatni vaqtinchalik boshqarish va demokratik islohotlarni amalga oshirish maqsadida Muvaqqat Inqilobiy Hukumat tuzildi. Hukumat tarkibiga turli ijtimoiy qatlamlarning vakillaridan iborat besh kishi saylandi.

Yangi hukumat o'z oldiga xalq manfaatlarini ilgari surish, adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan demokratik tartiblarni joriy etish, shuningdek, zamonaviy davlat qurish kabi yuksak vazifalarni qo'ydi. Shu tariqa, tarix sahnasida yangicha boshqaruv tamoyillari asosida Xorazmda yangi siyosiy tuzum barpo etish harakatlari boshlandi.

Ayni paytda, 1920-yillarning boshlarida Xorazm qishloq xo'jaligi chuqur inqirozga yuz tutdi. Sug'orish tizimi jiddiy zarar ko'rgan, ko'plab ariqlar va kanallar ishdan chiqqan edi. Natijada, ekin maydonlari keskin qisqardi, chorva mollari soni esa jiddiy kamaydi. Misol uchun, 1913-yilda Xorazmda paxta yetishtirish hajmi 2 million pudga, paxta ekiladigan maydon esa jami haydaladigan yerlarning 30 foiziga yetib, 90 ming desyatinani tashkil etgan edi. Ammo 1921-yilga kelib, paxta ekiladigan yerlar atigi 4 ming desyatinaga, paxta yetishtirish esa 25 ming pudgacha qisqarib ketdi. Chorvachilik sohasida esa mollarning umumiy soni uch baravardan ko'proq kamaydi [3, 635].

Bu jarayonlar qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini jiddiy darajada yomonlashtirdi. Ko'plab qishloqlarda ocharchilik va yuqumli kasalliklar avj oldi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi mutlaqo izdan chiqdi. Sanoat, hunarmandchilik, transport va savdo-sotiq sohalarda ham inqiroz chuqurlashdi. Ayniqsa, qishloqlarda kundalik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan keng iste'mol mollari tanqisligi o'ta keskin sezildi.

Muvaqqat Inqilobiy Hukumat 1920-yil fevral oyining boshlarida Manifest e'lon qildi. Unda mamlakatni demokratik asoslarda rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy sohalarda tub o'zgarishlar amalga oshirish ko'zda tutilgan edi [3, 628]. Manifestda Muvaqqat Hukumat oldiga quyidagi asosiy vazifalar qo'yildi: «Xon va uning hukumati tomonidan mamlakatni mutlaq o'z xohishicha boshqarishni tugatish; Xiva xoniga, shahzodalarga hamda vazirlarga tegishli pul va mulklarni ko'rinishlaridan qat'i nazar xalq mulki deb e'lon qilish; kambag'allarning turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida yirik yer egalaridan foydalanish; Xivaning bo'sh yotgan yerlariga Amudaryodan suv chiqarish maqsadida kanallar qazish; Xivaning

hamma joylarida bolalarni tekin o'qitish uchun maktablar ochish; shahar va aholi punktlarida tekinga davolash joylari va kasalxonalar ochish; Xiva xoni va beklari tomonidan aholidan zo'rlik bilan tortib olingan yer, mulk va boshqa narsalarni qaytarib berish; majburiy mehnat (begar) ni abadiy yo'q qilish» **[3. 620]**

Shu davrda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tashkil topdi. Uning umumiy maydoni qariyb 54 000 kvadrat kilometrni tashkil etib, aholisi 900 ming kishiga yetgan edi. XXSRning ma'muriy-hududiy tuzilmasi 4 ta muxtor viloyatdan iborat bo'lib, ular quyidagicha bo'lgan:

1. Turkman viloyati – markazi Toshhovuz;
2. Qirg'iz-Qoraqalpoq viloyati – markazi Xo'jayli;
3. Urganch viloyati – markazi Yangi Urganch;
4. Xiva viloyati – markazi Xiva **[5, 56]**.

XXSR markazi sifatida Xiva shahri tanlangan bo'lib, markaziy boshqaruv organlari aynan shu yerda joylashtirildi.

huningdek, XXSR hududi ma'muriy jihatdan tumanlarga bo'lingan bo'lib, jami 28 ta tuman tashkil qilingan edi. Bu tumanlar quyidagilardan iborat bo'lgan:

Darg'on-Ota, Pitnak, Xazorasp, Beshariq, Xiva, Oq-darband, Xonqa, Urganch, Qiyot-Qo'ng'iroq, Qiyot, Qo'shko'prik, G'azovot, Shox-Abad, Taxtabozor, Anbar-Manaq, Gurlan, Tashhovuz, Qilich Niyozboy, Ko'kchanik, Xitoy, Ilyopi, Mang'it, Qipchoq, Porsun, Xo'jayli, Ko'hna-Urganch, Shumanay va Qo'ng'iroq **[5, 19]**.

1920-yil iyul oyida XXSR hukumati o'zining navbatdagi muhim siyosiy qadamini belgilab oldi. Yig'ilishda Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi (RSFSR) bilan keng ko'lamli shartnomalar imzolash uchun Moskvaga vakolatli delegatsiya yuborish masalasi muhokama qilindi. Delegatsiya tarkibi ehtiyotkorlik bilan shakllantirilib, unga Xivada xonlik tuzumi ag'darilgandan so'ng yuzaga kelgan yangi siyosiy sharoitni aks ettiruvchi turli millat va siyosiy guruh vakillari kiritildi.

Delegatsiya 1920-yil 17-iyulda safarga chiqdi va Chorjuy–Toshkent yo'nalishi bo'ylab temir yo'l orqali harakatlanib, 1920-yil 28-iyul kuni Moskvaga yetib bordi **[1, 238–241]**. Biroq, muzokaralar kutilgandek silliq kechmadi. RSFSR tashqi ishlar xalq komissari o'rinbosari Lev Mixaylovich Karaxan va boshqa sovet rahbarlari XXSR bilan tuzilajak shartnoma loyihalarini Rossiya manfaatlariga to'liq mos kelmaydi degan bahona bilan muzokaralarni ataylab cho'zishga va natijalarni yo'qqa chiqarishga urinib, ig'vogarona harakatlarga kirishdilar. Hatto, ilgari kelishilgan shartnoma matnlarini o'zboshimchalik bilan, qo'pol tarzda o'zgartirib, XXSRning milliy manfaatlariga zid keladigan va mustaqil davlat sifatida uning ichki ishlariga bevosita aralashuvni ko'zda tutuvchi yangi moddalarni kiritishga harakat qildilar.

Lev Mixaylovich Karaxan delegatsiya rahbari Boboovun Salimov va uning safdoshlari bilan uchrashib, tuzilajak ikki tomonlama shartnomaga Rossiya tomoni tomonidan kiritilgan yangi o'zgartirishlar haqida ma'lumot berdi. Bu o'zgartirishlar, avvalo, Xorazm Xalq Sovet Respublikasining siyosiy suvereniteti va ichki mustaqilligiga jiddiy putur yetkazishga qaratilgan edi.

Rossiya tomoni tomonidan ilgari kiritilgan o'zgartirishlar quyidagi asosiy bndlarni o'z ichiga olgan edi:

1. Xorazm hududidagi barcha pochta va telegraf tarmoqlari to'liq Rossiya hukumati ixtiyoriga topshirilishi;
2. Xorazmda mavjud, ammo hozirda foydalanilmayotgan bo'sh yerlarning rus millatiga mansub shaxslar tomonidan tekin foydalanishga berilishini Xorazm hukumati rasmiy ravishda tasdiqlashi;
3. Amudaryo quyi oqimi va Orol dengizida baliq ovlash huquqining faqat rus fuqarolariga berilishi;
4. Shartnoma loyihasidagi 16-moddaning butunlay olib tashlanishi va uning o'rniga XXSRning mustaqil siyosiy tashkilotlar tuzish huquqini bekor qiluvchi, Rossiya manfaatlariga mos keladigan yangi matn kiritilishi;
5. Sug'orish tizimlarini (irrigatsiya tarmoqlarini) tozalash va yangi kanallar qazish ishlarining faqat rus mutaxassislari rahbarligida va ularning istagiga ko'ra amalga oshirilishi;
6. Xorazm hududida quriladigan temir yo'l atrofidagi har ikki tomondan bir chaqirim (taxminan 1 kilometr) kenglikdagi yerlarning Rossiya ixtiyoriga topshirilishi;
7. Savdo-sotiq operatsiyalari uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larning faqat rus banklari orqali taqdim etilishi;
8. Xorazmga beriladigan moliyaviy kreditlar faqat yuqori foiz stavkalari asosida ajratilishi va shuningdek, ilgari chor Rossiyasi davrida qurilgan, Xorazm xalqining mehnati evaziga bunyod etilgan zavodlarning (loyiha dastlab ular hech qanday shartsiz XXSRga topshirilishini nazarda tutgan edi) sovet Rossiyasi foydasiga qaytarib olinishi uchun maxsus komissiya yuborilishi [1, 289–290].

Bu talablar aniq ko'rsatadiki, sovet Rossiyasi XXSRni haqiqiy mustaqil davlat sifatida tan olishni emas, balki uni o'zining iqtisodiy va siyosiy qaramligiga solishni maqsad qilgan edi.

1922-yil 20-iyulda Xorazm Xalq Sovet Respublikasida III Umumxorazm qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda XXSRning Konstitutsiyasi qayta ko'rib chiqildi, shuningdek, Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ)ning yangi tarkibi saylandi.

Oradan bir yil o'tib, 1923-yil 18–20-oktyabr kunlari Sovetlarning IV Umumxorazm qurultoyi chaqirildi. Bu qurultoy mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotida muhim burilish yasadi: unda Xorazmning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi Konstitutsiya respublikada o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda, Xorazm Xalq Sovet Respublikasining yangi — sotsialistik rivojlanish davriga o'tganini rasman e'tirof etdi. Shu bilan birga, davlatning rasmiy nomi o'zgartirilib, Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR) deb belgilandi.

Qabul qilingan yangi Konstitutsiya 5 bo'lim va 12 bobdan iborat bo'lib, unda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi qoidalar o'z ifodasini topdi [5, 20–23].

Yangi Konstitutsiyaga binoan, yerning xususiy mulk sifatidagi maqomi bekor qilindi. Yersiz va kam yerli dehqonlarga yer ajratib berilishi belgilandi. Shu bilan birga, barcha vaqf yerlariga yagona qishloq xo'jalik solig'i joriy etildi, biroq vaqf yerlaridan foydalanayotgan dehqonlar ushbu soliqlarni to'lashdan ozod etildi. Bundan tashqari, vaqfqa qarashli barcha mulklar Vaqflar noziri boshqaruviga o'tkazildi.

Bu siyosiy o'zgarishlar Muvaqqat Inqilobiy Hukumat tomonidan ilgari e'lon qilingan dastlabki huquqiy hujjat — "Xonning mulki to'g'risidagi dekret" bilan bevosita uzviy bog'liq edi. Mazkur dekretga muvofiq, Xiva xoniga, uning qarindosh-urug'lari va vorislariga tegishli barcha ko'chmas mulklar musodara qilinib, davlat ixtiyoriga o'tkazildi.

Demokratik yo'l tutgan yangi hukumat qabul qilgan deyarli barcha dekretlarda shariat qonunlari asos qilib olinishiga intildi. 1921-yil dekabr oyida Xiva shahrida yersiz va kam yerli dehqonlarning birinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. Ushbu qurultoyda kambag'al dehqonlarni yer-suv bilan ta'minlash, ish hayvonlari, mehnat qurollari, urug'lik don va qarz mablag'lari ajratish kabi dolzarb masalalar keng muhokama qilindi. Dehqon xo'jaliklarini doimiy moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida qishloq xo'jaligi banki tashkil etishga qaror qilindi.

Bank o'sha yilning o'zidayoq faoliyat boshladi va kambag'al dehqon xo'jaliklariga jami 1,5 milliard so'm miqdorida kredit mablag'lari taqdim etdi. Biroq, mamlakat agrar sohasini to'liq tiklash uchun ajratilgan bu mablag'lar yetarli emas edi.

1922-yil 29-iyunda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) bilan Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi (RSFSR) o'rtasida yangi "Iqtisodiy bitim" imzolandi. Ushbu bitimga muvofiq, Xorazm hududida savdo faoliyatiga davlat nazorati o'rnatilishi belgilab qo'yildi. 1923-yil 19-fevralda esa Rossiya tomonidan

Paxtachilik shirkati tashkil etildi. Bu tashabbus Rossiya Bosh Paxta Qo'mitasi va O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (Sredaz EKOSO) tomonidan ilgari surildi.

Paxta shirkati Xiva, Hazorasp, Gurlan, Toshhovuz, Xonqa kabi markaziy tumanlarda jami olti paxta qabul punktlari va zavodlari tashkil etdi. Ular dehqonlardan paxta xomashyosini sotib olib, qayta ishlashni yo'lga qo'yishga kirishdilar.

Biroq, Rossiya paxta shirkatlari dehqonlardan paxta sotib olishda xarid narxlarini sun'iy ravishda pasaytirib yubordilar. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining noroziligiga sabab bo'ldi. XXSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining birinchi kotibi, xorijiy noziri va Xorazm paxta shirkati rahbari bo'lmish Xanif Kaniyev hamda XXSR savdo va sanoat noziri Muhammadrahim Nurullayev paxtaning xarid narxlarini oshirish va shu orqali dehqonlar manfaatdorligini himoya qilish maqsadida erkin savdo va yangi iqtisodiy siyosat tamoyillariga asoslanishni talab qildilar. Ammo bu harakatlari sovet hokimiyati tomonidan "xalq dushmanligi" sifatida baholanib, ular o'lim jazosiga hukm qilindilar.

1923-yilda Sredaz EKOSO rahbarligida va moliyaviy ko'magida Xorazmda ikkita yirik bank tashkil etildi. Bu banklar qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan kambag'al dehqon xo'jaliklariga uzoq muddatli kreditlar berish bilan shug'ullandilar [3, 638].

Yersiz va kam yerli dehqon xo'jaliklarini yer, ish hayvonlari va mehnat qurollari bilan ta'minlash maqsadida davlat yer fondi tashkil etildi. Bu fond orqali sobiq mulkdorlardan tortib olingan yerlar kambag'al dehqon xo'jaliklariga bo'lib berildi.

1923-yil 18–20-oktyabr kunlari o'tkazilgan Sovetlarning IV Umumxorazm qurultoyida yerga nisbatan xususiy mulkchilikni bekor qilish to'g'risida muhim qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan, yer-suv islohotlari bolsheviklarning sinfiy yondashuv talablariga muvofiq amalga oshirilishi belgilandi. Buning natijasida katta hajmdagi tanob yerlar o'z egalaridan musodara qilinib, kambag'al dehqonlarga qayta taqsimlandi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat mahsulotlari bilan ayirboshlashda kooperativlarning roli alohida ahamiyat kasb etdi. Xorazmda tashkil etilgan kooperatsiyalar juda oddiy va soddalashtirilgan shaklda faoliyat yuritib, tovar-ayirboshlash shirkatlari ko'rinishida rivojlandi. 1921-yilda, ayniqsa paxtachilik tumanlarida "Tong", "Qo'shchi", "Do'stlik", "Birlik" kabi kooperativ shirkatlar tashkil qilindi.

Bu shirkatlar har 50 pud paxta evaziga dehqonlarga quyidagi sanoat mahsulotlarini taklif etardi: 2 ta ketmon, 90 arshin manufaktura matosi, 6 dona g'altak ip, 4 funt kerosin, 30 quti gugurt, 60 funt tuz, 6 funt arava yog'i va 3 dona

ishlangan teri hamda 5–7 pud urug‘lik don. Bunday mahsulotlar evaziga ayirboshlash tizimi dehqonlar tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi va natijada paxta yetishtirishga bo‘lgan qiziqish ortdi.

Paxta yetishtirish sohasida erishilgan natijalar ham buni yaqqol ko‘rsatadi: 1921-yilda 3 ming desyatinaga teng bo‘lgan paxta maydoni 1924-yilga kelib 18 ming desyatinaga yetdi. Yalpi paxta hosili esa 1922-yilda 250 ming pudni tashkil etgan bo‘lsa, 1924-yilda 800 ming pudga yetdi. Biroq yetishtirilgan paxta xomashyosi to‘lig‘icha Rossiyaga olib ketildi [5, 6].

Sug‘orish inshootlari esa juda yomon ahvolda edi. Ko‘plab ariqlar, dambalar va kanallar foydalanishga yaroqsiz holga kelgan edi. Biroq, yangi hukumatda ushbu inshootlarni ta‘mirlash uchun yetarli moliyaviy resurslar yo‘q edi. Turkiston va Buxoro respublikalari tajribasidan kelib chiqib, Xorazmda ham og‘ir mehnat talab qiladigan bu ishlar bevosita qishloq aholisi zimmasiga yuklandi.

Masalan, 1922-yilda sug‘orish tizimlarini tiklash uchun 35 ming dehqon safarbar qilindi. Ular kuchi bilan 10 dan ortiq kanallar ta‘mirlandi, 200 kilometr masofada dambalar qayta qurildi. 1923-yilda esa qishloq aholisi hisobidan yana 24 ta yirik sug‘orish inshootlari tiklab berildi. Biroq bu ishlarning barchasi dehqonlarning majburiy va bepul mehnati hisobiga amalga oshirildi.

Xorazmda xalq xo‘jaligini, sanoat korxonalarini tiklash, tashqi bozorga tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish va Xorazm mollarini realizatsiya qilish geografiyasining tobora kengayib borishi davlat byudjetiga kelib tushayotgan daromad hajmining ortishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Agar 1920-yilda import hajmi atigi 18 ming pudni tashkil qilgan bo‘lsa, 1924-yilga kelib bu ko‘rsatkich 83,5 ming pudga yetib, qariyb 5 barobar o‘ydi.

Eksport ko‘rsatkichlari ham shunga mutanosib ravishda oshdi. 1922-yilda Xorazmda paxta tolasi hisobga olinmagan holda eksport 43 ming pudni tashkil qilgan bo‘lsa, 1924-yilga kelib eksport hajmi 159,5 ming pudgacha yetdi.

Bu ijobiy o‘zgarishlar davlat byudjetiga tushgan daromad ko‘rsatkichlarida ham o‘z aksini topdi. Xususan, 1922–1923-yil byudjet davrida tashqi va ichki savdodan davlat xazinasiga 152 million 730 ming 904 so‘m Xorazm pul birligida daromad kelib tushgan bo‘lsa, 1923–1924-yil byudjet davrida bu ko‘rsatkich 200 million so‘mni tashkil etdi. Foydaning yillik o‘sish sur‘ati 25 foizga teng bo‘ldi [2, 186].

Xorazmdan eksport qilingan mahsulotlar evaziga, 1924-yilda SSSRdan Xorazmga quyidagi tovarlar yetkazib berildi: 2 vagon qand, 1 million 715 ming so‘mlik manufaktura mahsulotlari, 300 yashik kalish, 9620 so‘mlik uy-ro‘zg‘or buyumlari, 5500 so‘mlik parfyumeriya mahsulotlari va 18 ming so‘mlik xo‘jalik uskunalari. 1924-yil noyabriga kelib esa, 1 million 800 ming so‘mlik mahsulot,

jumladan, 25 ming pud un, 12 ming pud qand, 4 ming pud choy, 25 ming dona ketmon va belkurak hamda 5 ming bosh qoramol yetkazib berildi.

Soliq tizimida ham bolsheviklarning sinfiy yondashuvi o'zini yaqqol namoyon etdi. XXSR hukumati dastlab kambag'al dehqonlarni og'ir soliq majburiyatlaridan ozod qildi. Soliqning asosiy og'irligi savdogarlar, sudxorlar va yirik yer egalari zimmasiga yuklatildi.

Bu siyosat natijasida 1920–1921-yillarda davlat xazinasiga 100 million so'm pul kelib tushdi. Qishloq xo'jaligi sohasida esa yagona soliq tizimi joriy etildi. Yangi tizimga muvofiq, o'ntalab yerga ega bo'lgan yuqori unumdor yerlardan 2 so'm 50 tiyin, o'rtacha unumdor yerlardan 2 so'm, kam unumdor yerlardan esa 1 so'm 50 tiyin soliq undirish tartibi belgilandi. Bundan tashqari, o'ntalabdan ortiq yer egalari 2 so'mdan 3 so'mgacha soliq to'lashlari shart etib belgilandi.

1923-yil iyun oyida Xorazmda sanoat sohasidagi soliqlarni yagona tizimga solish maqsadida "Davlat sanoat solig'i" joriy qilindi. Ushbu yangi soliq tizimi ham bolsheviklarning sinfiy siyosati asosida shakllantirildi. "Davlat sanoat solig'i" sanoat subyektlari faoliyatining miqyosi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib tabaqalarga mos tarzda belgilandi. Natijada, kichik hunarmandlardan yirik sanoat egalari va tadbirkorlargacha bo'lgan qatlamlarga har xil stavkalar qo'llanildi. Bu orqali sanoat ishlab chiqarishini davlat nazorati ostida ushlab turish va davlat byudjetiga qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish ko'zda tutilgan edi.

XULOSA.

1920–1924-yillar davomida Xorazmda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari va ularni amalga oshirishga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy chora-tadbirlar mamlakat tarixida tub burilish yasadi. Xiva xonligining tugatilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi natijasida agrar sohada shariat tamoyillariga tayangan holda bir qator demokratik islohotlar boshlangani kuzatildi.

Davlat yer fondining tashkil qilinishi, yersiz va kam yerli dehqonlarga yer ajratilishi, vaqf mulklarining davlat nazoratiga o'tkazilishi orqali yer resurslari ustidan xususiy mulkchilik bekor qilindi va sinfiy yondashuv asosida yer-suv siyosati shakllantirildi. Kooperatsiyalar va savdo shirkatlari orqali dehqonlarning iqtisodiy faolligi oshirildi, paxta yetishtirish maydonlari kengaydi, biroq yetishtirilgan paxta to'liq Rossiyaga olib ketilganligi mahalliy iqtisodiy mustaqillikni cheklab qo'ydi.

Sug'orish tizimini tiklash, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar asosan dehqonlarning majburiy va bepul mehnati evaziga amalga oshirildi. Soliq tizimida ham sinfiy yondashuv tamoyillari asosiy o'rin egallab, kambag'al dehqonlar uchun yengilliklar yaratildi, katta yer egalari va savdogarlarga nisbatan soliq yuki og'irlashtirildi.

Xorazmda tashqi va ichki savdo hajmining oshishi, sanoat korxonalarining tiklanishi va davlat byudjetiga kelib tushgan daromadlarning ko'payishi mamlakat iqtisodiy hayotida ijobiy natijalar bergani bilan, sovet siyosati ta'sirida XXSRning haqiqiy iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi cheklangan edi. Shunga qaramay, bu davr Xorazmda yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimining shakllanishi uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Yusupov P. Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar). – Urganch, 2000. – 474 b.
2. Непесов Г. Из истории Хорезмской революции. - Т., 1962. – С. 362.
3. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Т., 2000. – С. 670.
4. Saidov Sh. Xorazm xalq Sovet respublikasining tashqi munosabatlari va savdo aloqalari (1920–1924 yy.). – T.: ToshDShI nashriyoti, 2007. – 108 b.
5. Yuldosheva B.M. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tarixshunosligi (1920-1924 yy.). – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2023. – 116 b.
6. Yuldosheva B., Baqoyev U. Buxoro xalq sovet respublikasi yer-suv munosabatlari tarixi. – 2024.